ISNN 3030-3907

2026
MAY
ISSUE - 5
VOLUME - 2

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

MAY 2026
Issue - 5, VOLUME - 2

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

BUXORO MA'RIFATPARVAR JADIDLAR ILMIY MEROSIDA INSON QADRI FENOMENINING FALSAFIY TAHLILI

Salohov Akmal
Buxoro Davlat Texnika universiteti dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro jadidlarining ilmiy-ma'rifiy merosida inson qadri tushunchasining shakllanishi va uning falsafiy mohiyati tahlil etiladi. Abdurauf Fitrat, Ahmad Donish, Fayzullo Xo'jaev kabi ma'rifatparvarlarning asarlari asosida inson qadrining ma'naviy, ijtimoiy va madaniy aspektlari ochib beriladi. Shuningdek, inson qadri fenomeni milliy uyg'onish g'oyalari bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: Buxoro jadidlari, ma'rifatparvarlik, inson, inson qadri, jadidchilik harakati, inson kamolati, ma'naviyat.

Аннотатсия. В данной статье анализируется формирование консепсии человеческого достоинства и её философской сущности в научно-образовательном наследии Бухарских джадидов. На основе работ таких просветителей, как Абдурауф Фитрат, Ахмад Дониш, Файзулло Ходжаев, раскрываются духовные, сотсиальные и культурные аспекты человеческого достоинства. Также феномен человеческого достоинства интерпретируется в связи с идеями натсионального возрождения.

Ключевые слова: Бухарский джадидзм, просвещение, человек, человеческие сенности, движение джадидзма, человеческое совершенство, духовность.

Annotation. This article analyzes the development of the concept of human dignity and its philosophical essence in the scientific and educational legacy of the Bukharan Jadids. Drawing on the works of educators such as Abdurauf Fitrat, Akhmad Donish, and Fayzullo Khodjaev, the spiritual, social, and cultural aspects of human dignity are explored. The phenomenon of human dignity is also interpreted in relation to ideas of national revival.

Keywords: Bukhara Jadidism, enlightenment, man, human values, Jadidism movement, human perfection, spirituality.

KIRISH.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan jadidchilik harakati nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki chuqur falsafiy mazmunga ega bo'lgan ma'rifatparvarlik oqimi sifatida namoyon bo'ldi. Ushbu harakat markazida inson, uning qadri va kamoloti masalasi turdi. Jadidlar uchun inson – jamiyat taraqqiyotining asosiy sub'ekti va maqsadi sifatida talqin qilindi[1].

[1] Qosimov B. Jadidchilik tarixi. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 45.

ISSN 3030-3907

Inson qadri tushunchasi insoniyat tafakkuri tarixida markaziy o‘rin egallab kelgan. Ayniqsa, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan jadidchilik harakati insonni jamiyatning eng oliy qadriyati sifatida talqin qilishga alohida e’tibor qaratdi. Buxoro jadidlari mazkur jarayonda muhim o‘rin tutadi. Ular insonning ma’naviy kamoloti, bilim olishi va jamiyatdagi faol ishtiroki orqali uning qadrini yuksaltirish g‘oyasini ilgari surdilar.

Jadidchilik harakati, avvalo, ta’lim va ma’rifat orqali jamiyatni isloh qilishni maqsad qilgan. Bu jarayonda inson markaziy o‘ringa qo‘yildi. Jadidlar insonni faqat ijtimoiy mavjudot emas, balki ma’naviy kamolotga intiluvchi shaxs sifatida talqin qildilar.

Ahmad Donish o‘z asarlarida insonning aqliy va axloqiy kamoloti jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti ekanligini ta’kidlaydi[2]. Uning fikricha, insonning qadri uning bilimi va ma’naviyati bilan belgilanadi.

Ahmad Donishning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy va ma’rifiy qarashlari orqali insonni oliy qadriyat sifatida talqin qilish tendensiyasi yoritiladi. Donshning asarlarida inson qadri bilim, adolat, axloq va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq ekanligi ilmiy asosda tahlil qilingan. Donish insonni jamiyat taraqqiyotining markaziy sub’ekti sifatida ko‘radi va uning qadrini bilim, axloq va adolat bilan belgilaydi. Bu esa uning falsafiy merosini insonparvarlik tamoyillari asosida o‘rganishni talab etadi.

Falsafada inson qadri masalasi qadimdan muhim mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa, Al-Farabi, Ibn Sina kabi mutafakkirlar insonni “aqlli mavjudot” sifatida oliy qadriyat darajasiga ko‘targanlar[3].

Ahmad Donish ushbu an’anani davom ettirgan holda, inson qadrini quyidagi omillar bilan bog‘laydi:

- bilim va ma’rifat;
- axloqiy komillik;
- adolatli jamiyat;
- ijtimoiy faollik.

Uning fikricha, “insonning haqiqiy qadri uning aqliy va axloqiy kamoloti bilan o‘lchanadi”. Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoe” asari uning falsafiy qarashlarini yorituvchi asosiy manbalardan hisoblanadi. Unda jamiyatdagi nohaqliklar, adolatsizlik va jaholat inson qadrini pasaytiruvchi omillar sifatida tanqid qilinadi.

[2] Ahmad Donish. Asarlar to‘plami. – Toshkent: Fan, 1992.
[3] Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent, 1993.

ISSN 3030-3907

Donish ta’kidlaydiki: “Agar jamiyat ilm va adolatga asoslanmasa, inson qadri toptaladi”.[4] Bu fikr uning ijtimoiy-falsafiy pozitsiyasini ochib beradi. U inson qadrini jamiyat tizimi bilan bog‘laydi va adolatli davlatni inson qadrining kafolati sifatida ko‘radi. Donish qarashlarida ma’rifat inson qadrini belgilaydigan asosiy omil hisoblanadi. U jaholatni inson qadrining asosiy dushmani sifatida baholaydi. Bu jihatdan u Abdurauf Fitrat kabi jadidlar bilan hamohang fikrda bo‘lgan. Fitrat ham insonni “ma’rifat orqali ozodlikka erishuvchi shaxs” sifatida talqin qiladi.[5] Donishning fikricha: bilim insonni erkin qiladi, ma’rifat jamiyatni taraqqiy ettiradi, ilm inson qadrini oshiradi.

Ahmad Donish inson qadrini faqat bilim bilan emas, balki axloqiy fazilatlar bilan ham bog‘laydi. U adolat, insof, halollik va mas’uliyatni inson qadrining asosiy mezonlari deb hisoblaydi. Donish inson qadrini jamiyat bilan uzviy bog‘liq holda ko‘radi. U adolatsiz davlatni inson qadrini kamsituvchi tizim sifatida tanqid qiladi. Uning fikricha:

- adolatli jamiyat – inson qadrining asosi;
- qonun ustuvorligi – inson huquqlarining kafolati;
- ma’rifatli jamiyat – barqaror taraqqiyot sharti.

Bu g‘oyalar zamonaviy inson huquqlari konsepsiyasi bilan hamohangdir.

Ahmad Donishning ilmiy merosida inson qadri fenomeni markaziy o‘rin egallaydi. U insonni: oliy qadriyat, jamiyat taraqqiyotining asosiy sub’ekti, ma’rifat va axloq sohibi sifatida talqin qiladi.

Donishning qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, inson huquqlari, ta’lim va ma’rifat masalalarida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jadidchilik ta’limoti an’anaviy diniy-metafizik qarashlardan farqli ravishda insonni faol, ongli va ijodkor mavjudot sifatida baholadi. Bu holat ularning inson qadrini anglashda ratsionalizm va gumanizm tamoyillariga tayanganini ko‘rsatadi. Ahmad Donish o‘z asarlarida insonning aqliy kamolotiga alohida urg‘u berib, jamiyat rivojini inson ongi va bilim darajasi bilan bog‘laydi: “Agar inson bilimli bo‘lsa, u jamiyatni ham o‘zgartirish qudratiga ega bo‘ladi”[6]. Ushbu fikr inson qadrini bilish va ma’rifat bilan bog‘lovchi ilk konseptual yondashuv sifatida ahamiyatga ega.

Abdurauf Fitrat inson qadri masalasiga eng chuqur yondashgan mutafakkirlardan biri hisoblanadi. U o‘zining “Oila” va “Hind sayyohining bayonoti” asarlarida insonning ijtimoiy va ma’naviy mohiyatini tahlil qiladi. Fitrat insonni “millatning jonli kuchi” deb ta’riflaydi va uning qadrini tarbiya

[4] Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe. – Toshkent, 1960.
[5] Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 2006.)
[6] Ahmad Donish. Asarlar to‘plami. – Toshkent: Fan, 1992. – B. 118.

ISSN 3030-3907

orqali yuksaltirish mumkinligini ta’kidlaydi. Ayniqsa, “Oila” asarida u quyidagi fikrni ilgari suradi:

“Insonning kamoloti avvalo uning oilasidagi tarbiyasiga bog‘liq”.[7] Bu qarash inson qadrini ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilishga xizmat qiladi. Fitratning “Hind sayyohining bayonoti” asarida esa inson qadri milliy taraqqiyot bilan bog‘lanadi. U jamiyatning orqada qolish sabablarini insonlardagi ma’naviy passivlik va bilimsizlik bilan izohlaydi. Shu nuqtai nazardan, Fitrat ta’limotida inson qadri quyidagi uch bosqichda shakllanadi:

1. individual kamolot (shaxsiy rivojlanish);
2. ijtimoiy mas’uliyat (jamiyat oldidagi burch);
3. milliy ong (millat taqdiriga daxldorlik)[8].

Fitrat insonni “millatning asosi” sifatida ko‘radi va uning tarbiyasiga katta ahamiyat beradi. Uning qarashlariga ko‘ra, jamiyatning rivojlanishi insonning ma’naviy yuksalishi bilan uzviy bog‘liq.

“Insonni tarbiya qilmasdan millatni taraqqiy ettirib bo‘lmaydi”[9].

Bu g‘oya inson qadrini faqat individual emas, balki ijtimoiy kategoriya sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Jadidlar ta’limotiga ko‘ra: inson — ijtimoiy taraqqiyot sub’ekti, bilim inson qadrining asosiy mezoni, erkin fikr — shaxs kamolotining sharti.

Bu qarashlar gumanizm g‘oyalari bilan uyg‘un holda shakllangan.

Fayzullo Xo‘jaev o‘z chiqishlarida jamiyatni isloh qilish insonni tarbiya qilishdan boshlanishini ta’kidlaydi[9]. Uning fikricha: “Jamiyatni o‘zgartirish uchun avvalo insonni o‘zgartirish lozim”. Bu g‘oya gumanizm tamoyillari bilan uyg‘un bo‘lib, insonni eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etadi. Jadidlar qarashlarida inson va jamiyat munosabatlari quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- inson jamiyatni shakllantiradi;
- jamiyat inson kamoloti uchun sharoit yaratadi;
- inson va jamiyat o‘zaro ta’sirda rivojlanadi[10]. Bu yondashuv dialektik xarakterga ega bo‘lib, inson qadrini ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘laydi.

Jadidlar inson qadrini quyidagi uch asosiy jihatda talqin qiladilar:

1. Ma’naviy jihat – inson axloqiy komillikka intiladi;
2. Aqliy jihat – bilim va tafakkur insonni yuksaltiradi;
3. Ijtimoiy jihat – inson jamiyat rivojining faol ishtirokchisi. Bu jihatlar o‘zaro uyg‘unlikda inson qadri fenomenini tashkil etadi.

[7] Fitrat A. “Oila”. – Toshkent, 1916. – B. 12.
[8] Karimov Sh. Milliy uyg‘onish va inson qadri. – Toshkent, 2018. – B. 91.
[9] Fitrat A. “Oila”. – Toshkent, 1916.
[10] Fayzullo Xo‘jaev. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 1987. – B. 145.

ISSN 3030-3907

Jadidlar insonni “qadriyatlar yaratuvchi sub’ekt” sifatida ko‘radilar. Buxoro jadidlari ilmiy merosida inson qadri masalasi zamonaviy falsafiy qarashlar bilan hamohangdir. Ayniqsa, inson huquqlari, shaxs erkinligi va ijtimoiy adolat kabi tushunchalar jadidlar ta’limotida ilk bor milliy kontekstda asoslab berilgan. Bu holat jadidlarning faqat ma’rifatparvar emas, balki chuqur falsafiy tafakkur egalari ekanligini ko‘rsatadi.

Buxoro jadidlari ilmiy merosida inson qadri fenomeni markaziy o‘rin tutadi. Ularning qarashlarida inson — jamiyat taraqqiyotining asosiy omili, ma’naviy va aqliy kamolotning egasi sifatida talqin etiladi. Jadidlar inson qadrini bilim, ma’rifat va erkin fikr orqali yuksaltirish g‘oyasini ilgari surganlar. Bu g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Jadidlar inson qadrini bilim, tarbiya va ijtimoiy faollik orqali yuksaltirish g‘oyasini ilgari surganlar. Ushbu g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimov B. Jadidchilik tarixi. – Toshkent: Sharq, 2004.
2. Ahmad Donish. Asarlar to‘plami. – Toshkent: Fan, 1992.
3. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent, 1993.
4. Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe. – Toshkent, 1960.
5. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 2006.
6. Ahmad Donish. Asarlar to‘plami. – Toshkent: Fan, 1992.
7. Fitrat A. “Oila”. – Toshkent, 1916.
8. Karimov Sh. Milliy uyg‘onish va inson qadri. – Toshkent, 2018.
9. Fitrat A. “Oila”. – Toshkent, 1916.
10. Fayzullo Xo‘jaev. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 1987

ISSN 3030-3907